

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

HABIB SIDDIQ PUBLISISTIKASI VA FOLKLORIZM

Muazzam Baxriddinova

*ADU o‘zbek adabiyoti ixtisosligi 1-bosqich tayanch doktoranti,
muazambaxriddinova@gmail.com*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Habib Siddiq publisistikasi tahlilga tortilgan. Yozuvchi publisistikasiga folklorizmning ta’siri o‘rganilgan. Xususan Habib Siddiq publisistik asarlarida qo‘llanilgan folkloristik motivlar, folklor unsurlari tahlil qilingan. Mazkur maqolani yozishda qiyosiy-tipologik, sotsiologik, germeneytik tahlil metodlaridan foydalanilgan.*

***Kalit so‘zlar:** publisistika, xalq og‘zaki ijodi, folklorizm, oddiy folklorizm, murakkab folklorizm, publisistik folklorizm.*

O‘zbek yozma adabiyotida xalq og‘zaki ijodidan foydalanish eng qadimgi davrlardan boshlab mavjud bo‘lgan. Adabiyotning eng asosiy oziq manbayi xalq va uning ijodiyotidir. Dastavval og‘zaki shaklda yaralgan adabiyotimiz mana necha asrlardirki yozma manbalar uchun poydevor vazifasini o‘tab kelmoqda. Xalqning bor boyligi, so‘zining go‘zalligi adabiyotda namoyon bo‘ladi. Uning gullab yashnamog‘ida, taraqqiy topmog‘ida esa xalq og‘zaki ijodi ya’ni folklorning o‘rni beqiyosdir. O‘zbek yozma adabiyoti folklordan janr, syujet o‘zlashtirgan, vazn va qofiya qo‘llashni o‘rganib olgan bo‘lsa-da, ma’lum qonuniyatlar asosida qorishiq holatga kelgan va badiiy jihatdan taraqqiy etgan. O‘zbek adabiyotining shakllanishi va taraqqiyotida xalq og‘zaki ijodi- bitmas tuganmas manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek adabiyotining ilk yodgorliklaridan tortib, uning butun taraqqiyot bosqichlari, so‘z san’atkorlarining ijodiyoti buning yorqin dalilidir. Xalq og‘zaki ijodi yozma adabiyot namoyondalarini xalqning dili va tili, hayot tarzi va kurashlari, dunyoqarashi va urf-odatlarini, tashvishi va orzu istaklari bilan yaqindan tanishtirdi, badiiy ijodkorlik ko‘nikmalarini tug‘dirdi, g‘oya va obrazlarning poyonsiz olamiga olib kirdi. Yozuvchi va shoirlar folklorning mavzu va g‘oyalaridan, syujet va obrazlaridan, hayotni tasvirlash usul va uslublaridan ijodiy foydalandilar va asarlarining xalqchil bo‘lishiga erishdilar. Aytish mumkinki, yozma adabiyot eng qadimgi davrdan boshlab xalq og‘zaki ijodi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Yozuvchi va shoirlar o‘z asarlarida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanib kelganlar. Adabiyotning qaysi tarmog‘i, yo‘nalishiga e’tibor bermang, barida folklorning ta’sirini ko‘rishingiz mumkin. Xususan tahlilga tortadiganimiz Habib Siddiq publisistikasi ham bundan mustasno emas, mahoratli yozuvchi ijodi ham xalq og‘zaki ijodi bulog‘idan suv ichgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yozuvchi publisistikasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak aksariyat maqolalarida folklor namunalariga murojaat etganiga guvoh bo‘lamiz. Yozma adabiyotga folklorning kirib kelishi turli istilohlar bilan nomlandi. Xususan, “folklordan foydalanish”, “folklor

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ta’siri”, “folklor an’analari” va “folklorizm” atamaları shular jumlasidandir. Turli baxs munozaralar, olimlarimizning izlanishlari yakuni o’laroq xalq og’zaki ijodining yozma adabiyotga ta’siri, ijodkorning folklordan foydalanish mahorati “Folklorizm” atamasi bilan yuritila boshlandi. Ijodkor folklor materialidan g’oyaviy niyati va maqsadiga, qaysi turda ishlatishiga qarab, turlicha yo’nalish va maqsadlarda foydalanishi mumkin. U xohlasa folklor materialini shaklan o’zgartirmay aynan qo’llashi yoki qayta ishlab, o’z asarining ruhiga singdirib keltirishi mumkin. Shu kungacha o’zbek adabiyoti namunalarida uchraydigan folklorizmlarni adabiyotshunos, olim L. Sharipova to’rt jihatiga ko’ra tasnif qilgan:

1) qo’llanish davriga ko’ra: a) mumtoz folklorizm; b) zamonaviy folklorizm;

2) qo’llanish o’rniga ko’ra: a) badiiy folklorizm; b) publitsistik folklorizm;

[3.144.]

Habib Siddiq muxlislar va adabiy jamoatchilik orasida asosan hajvchi yozuvchi sifatida tanilgan bo’lsa-da, adib qator jiddiy hikoyalar, qissalar, publitsistik maqolalar muallifi ham hisoblanadi. Habib Siddiq badiiy publitsistikada ham izlanib, ma’naviy- ma’rifiy yo’nalishdagi hamda yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir maqolalari bilan Respublika va viloyat matbuotida faol qatnashib kelmoqda. “Xalq so’zi” gazetasining 2007-yil

9-yanvar sonidagi “Vijdon imtihoniga tayyormizmi?” nomli publitsistik chiqishi o’quvchilar diqqatiga sazovor bo’ldi. “Vatandan ayro baxt yo’q”, “Azaliy qadriyatlar namoyishi”, “Aldanib qolgan yomon”, “Soxtalik ortidagi g’araz”, “Har joyni qilma orzu...”, “Ko’rar ko’zlarning nuri ilmdandir” kabi publitsistik maqolalari jamoatchilik e’tiborini tortdi.[1.364.] Bu kabi misollarni ko’plab keltirish mumkin va ushbu maqolalarning deyarli barchasida folklorizm namunalari ko’zga tashlanadi. Yozuvchi fikrini dalillash, o’quvchiga yanada tushunarliroq qilish, maqolani mazmun jihatdan yanada boyitish maqsadida folklor namunalari, xususan, maqollar, hikmatli so’zlar, rivoyatlar, latifalarga yuzlanadi, bu esa o’z navbatida o’quvchini asarga yanada yaqinlashtiradi. Yuqorida ta’kidlaganimiz “Vatandan ayro baxt yo’q” maqolasida ham yozuvchi maqollar, latifalar, iboralar va xalq orasida ommalashgan so’zlardan foydalanadiki, bu maqola mazmunini yanada boyitadi, adib fikrlarining isboti o’laroq ko’z o’ngimizda gavdalanadi. Yozuvchi hozirgi kun yoshlarining taqiqlangan narsalarga qiziqishi haqida fikr bildirarkan o’z fikrini “Taqiqlangan taom shirin bo’ladi” fikri bilan dalillaydi. Bu esa oddiy folklorizm hisoblanadi. Ya’ni yozuvchi folklor elementini asarga tayyor holatda olib kiradi. Yana maqolaga nazar tashlaymiz: “Bir bola “Sensatsiya, sensatsiya! Ming kishi aldandi! Ming kishi aldandi! deb qayta-qayta baqirib gazeta sotib yurgan ekan. “Qiziq gap bor, shekilli” deb bittasi gazeta

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

sotib olibdi. Bola esa “Sensatsiya, sensatsiya! Ming bir kishi aldandi!” deb yo‘lida davom etibdi. Shunga o‘xshash, ayrimlar nomi boru o‘zi yo‘q odamlar nomidan har xil axborotlar to‘qib tashlashdan ham uyalmayaptilar. Albatta, ularga ham qiyin, “Kim pul to‘lasa, musiqani o‘sha buyuradi” yoki “Kimning aravasiga tushsang, o‘shaning ashulasini aytasan”, deganlariday, suvni loyqalashdan manfaatdor tashkilotlardan olayotgan choychaqalarini oqlashlari kerak-da. Ehtimol, ana shu majburiyat ularni goh-goh tirnoq ostidan kir qidirib qolishlariga, pashshadan fil yasashlariga sabab bo‘layotgandir”. [1.129.] Adib aytmoqchi bo‘lgan jiddiy gapini ham o‘quvchiga hajviy latifa orqali yetkizmoqda. Har qanday gapga ham ishonib ketavermaslik kerakligini ushbu latifa orqali isbotlamoqda. Yoki maqola davomidagi iboralar, qochirimli so‘zlarning qo‘llanganligi maqolaning badiiy qimmatini yanada oshiradi va yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan fikrlarni go‘zallashtiradi. Bu esa adabiyotshunos olimi L. Sharipova ta’kidlanganidek, publisistik folklorizmni yuzaga keltiradi. Bu kabi misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin. “Ruhimizni oziqlantiruvchi manba” maqolasida ham yozuvchi folklorizmga murojaat qiladi. Ushbu maqolada ham “Kitob ko‘rgan odam” iborasini va bitta rivoyatni keltiradiki, bu ibora va rivoyat maqolaning ruhiga singib ketadi. Yoki maqolalarda rivoyatlarni keltirish ertaklardagi “hikoya ichida hikoya” usulini yodga soladi. Yozuvchi bu usuldan bir necha maqolasida foydalangan, jumladan, “Vijdon imtihoniga tayyormizmi?” maqolasida ham yozuvchi “hikoya ichida hikoya” keltiradi, ya’ni maqola mazmuniga mos rivoyat qo‘llaydi. Bir so‘z bilan aytganda yozuvchi folklor motividan foydalanadi. Bu esa Habib Siddiq ijodi folklor bilan bevosita bog‘liq ekanini yana bir bor isbotlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Habib Siddiq publisistikasi ham uning boshqa ijod namunalari kabi folklorizm bilan bevosita bog‘liq. Publisistik folklorizm adib maqolalarini yanada to‘ldiradi, mazmunan boyitadi va o‘quvchiga yanada yaqinlashtiradi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari yozuvchi ijodi uchun bitmas-tuganmas ilhom manbayi bo‘lib xizmat qiladi. Bu kabi folklorizmlar xalq og‘zaki ijodiga yana yangi umr, Habib Siddiq asarlariga esa mazmun va ko‘rk bag‘ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳабиб Сиддиқ. (2024) Сайланма. Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси. 390 б
2. Ёрматов И. (1984). Стилизация характеридаги фолклоризмлар. Ўзбек адабиёти, 3, 31-35.
3. Sharipova L. (2011). XX asrning 70-80-yillari o‘zbek she‘riyatida folklorizm. Toshkent: Fan.
4. Sharipova L. (2019). She‘riyat va folklor. Toshkent: Navro‘z
5. Sharopova N. (1998) Og‘zaki lirika janrlariga murojaat etish tamoyili. O‘zbek tili va adabiyoti. 2 28-32.